

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IQTISODIY O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Saparova Umida Baxromovna

Toshkent Amliy Fanlar Unversiteti

E-mail: umidasaparova7@gmail.com

Esanbayeva Diyora Djuravoy qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Unversiteti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy o'quv motivlarini shakllantirishning o'ziga xosligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: motiv, o'quvchi, ishonch, fikirlash, mehnat, taffakkur intellect, mantiq, differensial

Kirish. Boshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o'quvchilarning iqtisodiy motiv sohasini o'rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga - ta'lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta'kidlab o'tiladi. Shu munosabat bilan ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o'quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi.

Asosiy qism. O'quvchilarini erkin fikrlovchi, iqtisodiy bilimlarga, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda — bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy va iqtisodiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo'lmagan, umumiy tushunishdan o'qish va o'rganishning zarurligi sabablarini anglashda, “o'zi uchun” o'qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo'ladi. Motivlar asosida o'quvchining o'quv mustaqilligini shakllanishi rivojlantiruvchi ta'lim shartlariga bog'liqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari motivlari sohasini o'rganishga oid anchagina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay, motivlar sohasining korellyasiyasi muammolari hali ham yetarli darajada o'rganilmaganligi sezilmoqda. Keyingi yillarda o'zbek pedagog olimlari tomonidan ham o'quvchilar o'quv biluv

faoliyatini tadqiq etishga oid qator keng qamrovli didaktik tadqiqotlar olib borildi. Shunday ishlar qatoriga O.Roziqov, K.Zaripov, N.Ortiqov, B.Adizov, R.Safarova, R.Asadova, U.Musayev, H.Nazarova, G.Najmiddinova, A.Hamroyev kabi olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Garchand, bu ishlarda o‘quv-biluv faoliyatining turli qirralari yoritilgan bo‘lsada, ularda o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirishning ayrim masalalari bayon qilingan, xolos. Insonning kundalik turmush tarsi, iqtisodiy bilimi, mehnat va faoliyat bilan bog‘liqdir. Shu sababli mehnat umuminsoniy, milliy, moddiy va ma‘naviy boyliklarning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti negizi hisoblanadi. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining o‘rni beqiyosdir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg‘ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o‘z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin. Buyuk ajdodlarimiz mehnat, iqtisodiy tarbiyasi to‘g‘risida to‘xtalib, qimmatli fikrlarni bildirib o‘tishgan. Masalan, Abdurahmon Jomiy: “Oltin topmaginu o‘rgan-gin hunar, hunarning oldida xasdir oltin-zar”, - degan fikr bildirsalar, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy: "Umrni zoye etma, mehnat qil, mehnatni saodatning kaliti bil", - deydilar. Fransuz adibi Anatol Frank: "Eng yaxshi axloqiy va estetik dori - mehnat", - degan fikrni ilgari suradi. Bundan tashqari "Avesto", Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologoya", Mahmud Qoshg‘ariyning "Devonu lug‘atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma‘rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Buyuk ajdodlarimiz mehnat tarbiyasi to‘g‘risida to‘xtalib, qimmatli fikrlarni bildirib o‘tishgan. Masalan, Abdurahmon Jomiy: “Oltin topmaginu o‘rgan-gin hunar, hunarning oldida xasdir oltin-zar”, - degan fikr bildirsalar, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy: "Umrni zoye etma, mehnat qil, mehnatni saodatning kaliti bil", - deydilar. Fransuz adibi Anatol Frank: "Eng yaxshi axloqiy va estetik dori - mehnat", - degan fikrni ilgari suradi. Bundan tashqari "Avesto", Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologoya", Mahmud Qoshg‘ariyning "Devonu lug‘atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma‘rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Motivlarning guruhlari o‘zaro dinamik bog‘liq holda muayyan shart-sharoitlarga ko‘ra amal qiladi. Ana shu bog‘lanishga ko‘ra o‘qishning (o‘quv-biluv faoliyatining) harakatlantiruvchi kuchi degan tushuncha paydo bo‘ladiki, uning xarakteri, yo‘nalganligi va ko‘lami motivlarning mujassam ta‘siriga ko‘ra belgilanadi. Turli xildagi motivlar didaktik jarayonlarning kechishi va natijalariga turlicha ta‘sir ko‘satadi. Masalan, keng biluv motivlari ko‘proq ta‘lim mazmunini qamrab olishga

intilishda namoyon bo‘ladi, amm shunga qaramay bu motivlar o‘quv-biluv motivlariga nisbatan kuchsiz bo‘ladi. Chunki o‘quv-biluv motivlari tor sohada mustaqil faoliyat yuritishga stimullashtiruvchi eng yaxshi vosita bo‘lib hisoblanadi. Raqobatchilik muhitida esa ko‘proq utilitar-amaliy motivlar hukmronlik qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda maktab o‘quvchilari motivlarini maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlar asosida yotuvchi - qo‘zg‘otuvchi hamda umumahamiyatga molik bo‘lgan qadriyatlarni shaxsiy qadriyatlar darajasiga olib chiqadigan mohiyat kasb etuvchi motivlar singari turlarga ajratish mumkin. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirishda o‘qituvchi juda muhim o‘rin egallaydi. Chunki u ta‘lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – bir dalaning hosilidir. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni stimullashtirish ularda o‘quv-biluv motivlarining boshqa motivlardan ko‘ra kuchliroq bo‘lishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv mativlarining xususiyatlari: Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang‘ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta‘lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta‘lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda – bilimlarni olish bilan birgalikda qo‘shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o‘qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo‘lmagan, umumiy tushunishdan o‘qish va o‘rganishning zarurligi sabablarini anglashda, “o‘zi uchun” o‘qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo‘ladi. Motivlar asosida o‘quvchining o‘quv mustaqilligini shakllanishi rivojlantiruvchi ta‘lim shartlariga bog‘liqdir: – faoliyat maqsadi. Nima qilinayotganligi va nima uchun qilinayotgan bola uchun tushunarli bo‘lishi kerak. – o‘quvchi faoliyatida motivlar katta ahamiyatga ega.

Motivlar qo‘yilgan maqsadga erishish uchun harakat qilishga yo‘naltiradi. – faoliyat mazmuni. Pedagog tomonidan beriladigan bilimlarni emas, balki o‘quvchining o‘zi tomonidan mustaqil izlaydigan va egallaydigan bilimlarni taqdim etish. Turli aqliy harakatlarni talab etuvchi topshiriqlar o‘quvchilar bilimlarining rivojlanshiga olib keladi. – o‘quvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tarkibiga kiruvchi harakatlarning ahamiyati katta. Harakatlar turlicha bo‘lishi mumkin. Oddiy harakatlar (qandaydir bir harakatlarni takrorlash), ijodiy harakatlar, amaliy va aqliy harakatlar.

O‘quvchi murakkab topshiriqni o‘zi mustaqil rejalashtirib bajarishi yoki pedagogning ko‘rsatmasiga ko‘ra bajarishi mumkin, bunda asosan, o‘quvchidan mavzuni diqqat bilan eshitishni va uni aniq bajarishni talab etadi. Lekin murakkab topshiriqlarni mustaqil bajarish, undan mustaqil harakat qilishni, topshiriqni bajarishni yo‘llari va uslublarini mustaqil topishni talab etadi. – barcha tashkiliy sharoitlar yaratilmasa har qanday faoliyatning rivojlantiruvchi imkoniyati yo‘qoladi. –

o‘quvchining faoliyati rivojlantiruvchi xarakter kasb etishi uchun, u doimo murakkablashtirilib borilishi kerak. Faoliyat mazmuni va vazifalari asta-sekinlik bilan murakkablashib boradi, vazifalarning tezligi va sifatiga talab oshadi, vazifalarni bajarishda va yechimini topishda o‘quvchilar mustaqilligiga asoslanilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun uning faoliyat natijasi pedagog tomonidan nazorat qilinishi va baholanishi lozim. – o‘quvchi o‘z muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizliklarini bilishi (bizning fikrimizcha, nazorat va baholash yo‘llari o‘quvchilarning o‘zlariga ham o‘rgatib borilishi zarur). Har qanday sharoitda baho o‘quvchini kelgusidagi murakkab va qiziqarli faoliyatga undovchi stimulyator vazifasini o‘tashi lozim. Ko‘rsatib o‘tilganlar kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarning motivatsion sohasi o‘zgarib, ularni, “o‘quvchi mavqei”ni egallashiga, ya’ni umumiy o‘rta ta’lim maskaniga borishga bo‘lgan intilishi, qondirilganidan so‘ng, yangi munosabatlarning – o‘quv motivlari va bir qancha murakkab shaklda bo‘lgan ijtimoiy motivlarning yuzaga kelishidan dalolat beradi. Kichik maktab davrining oxirlariga kelib o‘quvchilarda o‘quv bilish motivlari, ya’ni faqat yangi bilimlarni va umumiy qonuniyatlarni emas, balki yangi bilimlarni topishning aynan biror-bir yo‘llarini egallashga qiziqish shakllantirilgan bo‘lishi lozim. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘quv motivatsiyasi xususiyatlarini, ichki yoki tashqi motivatsiyaning ustunligini aniqlash uchun N. G. Luskanova tomonidan taklif etilgan so‘rovnoma shaklidagi metodikadan foydalanish mumkin. Fanda o‘quvchilar o‘quv motivatsiyasi xususiyatlarini o‘rganishga xizmat qiluvchi ko‘pgina psixodiagnostik metodikalar ma’lum. Ammo ushbu metodika o‘zining ixchamligi, undagi savollarda o‘quvchi uchun odatiy bo‘lgan hayotiy vaziyatlar aks etishi, javob variantlarining tayyor holda keltirilgani, uni ham individual, ham guruhviy qo‘llash mumkinligi, olingan natijalarni qayta ishlash jarayonini qulaylashtiradi. Motivlar asosida o‘quvchining o‘quv mustaqilligini shakllanishi rivojlantiruvchi ta’lim shartlariga bog‘liqdir: qilinayotganligi va nima uchun qilinayotgan bola uchun tushunarli bo‘lishi kerak.

-o‘quvchi faoliyatida motivlar katta ahamiyatga ega. Motivlar qo‘yilgan maqsadga erishish uchun harakat qilishga yo‘naltiradi.

-faoliyat mazmuni. Pedagog tomonidan beriladigan bilimlarni emas, balki o‘quvchining o‘zi tomonidan mustaqil izlaydigan va egallaydigan bilimlarni taqdim etish. Turli aqliy harakatlarni talab etuvchi topshiriqlar o‘quvchilar bilimlarining rivojlanshiga olib keladi.

-o‘quvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tarkibiga kiruvchi harakatlarning ahamiyati katta. Harakatlar turlicha bo‘lishi mumkin. Oddiy harakatlar (qandaydir bir harakatlarni takrorlash), ijodiy harakatlar, amaliy va aqliy harakatlar. O‘quvchi murakkab topshiriqni o‘zi mustaqil rejalashtirib bajarishi yoki pedagogning ko‘rsatmasiga ko‘ra bajarishi mumkin, bunda asosan, o‘quvchidan mavzuni diqqat bilan eshitishni va uni aniq bajarishni talab etadi. Lekin murakkab topshiriqlarni

mustaqil bajarish, undan mustaqil harakat qilishni, topshiriqni bajarishni yo‘llari va uslublarini mustaqil topishni talab etadi.

-barcha tashkiliy sharoitlar yaratilmasa har qanday faoliyatning rivojlantiruvchi imkoniyati yo‘qoladi.

-o‘quvchining faoliyati rivojlantiruvchi xarakter kasb etishi uchun, u doimo murakkablashtirilib borilishi kerak. Faoliyat mazmuni va vazifalari asta-sekinlik bilan murakkablashib boradi, vazifalarning tezligi va sifatiga talab oshadi, vazifalarni bajarishda va yechimini topishda o‘quvchilar mustaqilligiga asoslanilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun uning faoliyat natijasi pedagog tomonidan nazorat qilinishi va baholanishi lozim.

-o‘quvchi o‘z muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizliklarini bilishi (bizning fikrimizcha, nazorat va baholash yo‘llari o‘quvchilarning o‘zlariga ham o‘rgatib borilishi zarur). Har qanday sharoitda baho o‘quvchini kelgusidagi murakkab va qiziqarli faoliyatga undovchi stimulyator vazifasini o‘tashi lozim. Qolaversa, o‘quv motivatsiyasi darajasi asosida ichki va tashqi motivatsiyadan qaysi biri ustunligi haqida xulosa chiqarish uchun zarur ma’lumotlarni to‘plash imkonini beradi. N. G. Luskanova taklif etgan metodika uchun ishlab chiqilgan standart baholar o‘quvchilar o‘quv motivatsiyasi tizimida ichki yoki tashqi motivlar ustuvorligi aniqlash imkonini beradi. Bunday metodikadan amaliyotda foydalanuvchi mutaxassislarining ko‘rsatishicha, o‘rtacha o‘quv motivatsiyasiga mos ko‘rsatkichlar odatda tashqi motivatsiyadan darak bersa, o‘rtachadan yuqori motivatsiya, tashqi talab va me’yorlardan nisbiy mustaqillik, ya’ni ichki motivlarga ko‘proq tayanishni ko‘rsatadi. Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang‘ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta’lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta’lim olish motivlari yuzaga kelib ular eng oddiy shaklda – bilimlarni olish bilan birgalikda qo‘shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o‘qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo‘lmagan, umumiy tushunishdan o‘qish va o‘rganishning zarurligi sabablarini anglashda, “o‘zi uchun” o‘qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo‘ladi. oshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o‘quvchilarning motivlari sohasini o‘rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o‘quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Qayd etilgan muammolarni tadqiq etish qator shart-sharoitlarga bog'liq. Avvalo, ta'limda o‘quvchilar maqomini yangilash, ularni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirish ehtiyoji tug'iladi.

Binobarin, bu masala muammoning ikkinchi tomoniga, ya'ni o'quvchining ta'lim jarayoni subyektiga aylanish istagi va ehtiyojiga ham bog'liq. Aynan, ana shunday ehtiyojni ularda paydo etish, ya'ni o'quvchini o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari motivlari sohasini o'rganishga oid anchagina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay, motivlar sohasining korellyasiyasi muammolari hali ham yetarli darajada o'rganilmaganligi sezilmoqda.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash zarurki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning iqtisodiy o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishda o'qituvchi juda muhim o'rin egallaydi. Chunki u ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida o'quvchilarning iqtisodiy o'quv biluv faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – bir dalaning hosilidir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni stimullashtirish ularda o'quv-biluv motivlarining boshqa motivlardan ko'ra kuchliroq bo'lishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Э.Торндайк. Процесс учения у человека / Пер. С англ. – М.: Изд-во иностр. Лит-ры, 1931. – 317 с.
2. F.I. Haydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. –T.: 2010-yil. 275-276-betlar.
3. Jo'rayev N.S. “O'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish va o'rganishning psixologik xususiyatlari” Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2006. 107 b.
4. Jo'rayev N.S. “O'quv motivlarini shakllantirish” - Toshkent:TDPU.2008.-62 b